

TA'LIM SOHASIDA O'QUVCHILARNI ENG ZAMONAVIY KASBLARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Uzakova Muxayyo Boltaboy qizi

*Samarqand viloyati Samarqand shahar
11-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim sohasida o'quvchilarni zamonaviy kasblarga yo'naltirishning psixologik asoslari, kasbiy qiziqishlarni aniqlash va rivojlantirish usullari hamda kasb tanlash jarayonida maktab psixologining o'rni yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar davrida yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga tayyorlashning muhim jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, zamonaviy kasblar, kasbiy qiziqish, kasbiy layoqat, o'quvchi shaxsi, maktab psixologi, motivatsiya, kasbiy rivojlanish, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti davrida mehnat bozori talablarida keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni talab etmoqda. Shu sababli ta'lim tizimida o'quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlash va ularni zamonaviy kasblarga ongli ravishda yo'naltirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash inson hayotidagi eng mas'uliyatli qarorlardan biridir. To'g'ri tanlangan kasb shaxsning muvaffaqiyati, o'zini namoyon qilishi va jamiyat rivojiga qo'shadigan hissasini belgilaydi. Shuning uchun o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Zamonaviy kasblar qatoriga sun'iy intellekt mutaxassisi, dasturchi, kibertahlilchi, robototexnika muhandisi, grafik dizayner, raqamli marketing mutaxassisi, ma'lumotlar tahlilchisi, veb-dasturchi, mobil ilovalar yaratuvchisi va boshqa innovatsion yo'nalishlar kiradi. Ushbu kasblar nafaqat yuqori daromad manbai, balki kelajakda jamiyat taraqqiyotining muhim omillari hisoblanadi.

O'quvchilarni zamonaviy kasblarga yo'naltirishning eng muhim psixologik usullaridan biri kasbiy diagnostikadir. Psixologik testlar, so'rovnomalar va suhbatlar yordamida o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va kasbiy moyilliklari aniqlanadi. Natijalar asosida ularga mos kasbiy yo'nalishlar tavsiya etiladi.

Kasbiy motivatsiyani shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar zamonaviy kasblarning mazmuni, imkoniyatlari va istiqbollari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsalar, ularda ushbu sohalarga qiziqish ortadi. Kasb egalari bilan

uchrashuvlar, seminarlar, mahorat darslari va kasb haftalıkları o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Psixologik treninglar ham kasbga yo‘naltirish jarayonining muhim qismidir. Treninglar davomida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, maqsad qo‘yish va o‘z imkoniyatlarini baholash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bu esa ularga kasb tanlashda ongli va mas‘uliyatli yondashishga yordam beradi.

Zamonaviy kasblarga yo‘naltirishda o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ham muhimdir. Chunki bugungi mehnat bozori yangilik yarata oladigan, muammolarga innovatsion yechim topa oladigan mutaxassislarini talab qilmoqda. Shu bois ta‘lim jarayonida ijodkorlik, tashabbuskorlik va loyihaviy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash zarur. Maktab psixologi ushbu jarayonda muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganadi, kasbiy qiziqishlarini aniqlaydi va ularga individual maslahatlar beradi. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikda o‘quvchilarning kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi ham kasb tanlashda katta ahamiyatga ega. Ular farzandlarining qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlari, biroq tanlovni majburlamasliklari lozim. Bu o‘quvchilarning o‘z kasbiy yo‘lini mustaqil va mas‘uliyatli tanlashiga yordam beradi.

Ta‘lim muassasalarida kasbiy yo‘naltirish ishlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish ham muhimdir. Virtual ekskursiyalar, onlayn platformalar, kasbiy diagnostika dasturlari va interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

Yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirish orqali, bo‘lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo‘naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o‘quvchi shaxsini kasbga yo‘naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to‘laqonli ta‘minlash zaruratini hisobga olish kerak.

Lekin bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o‘quv qo‘llanmalar, dars ishlanmalari, ko‘rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me‘yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo‘yicha tezkor aloqning o‘rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Kasb tanlash uchun o‘quvchi o‘z imkonoyatlarini baholay olish ko‘nikmasiga, ya‘ni qiziqishi mos kasblar bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan xabrdor bo‘lishi zarur. Kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta‘minlash zarurligini

inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'g'ri yo'lni topishiga imkon beradi.

O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perseptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlari yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb - hunar to'risidagi ma'ruzalarni tashkillash o'z natijasini beradi, shuningdek, maktablarda " Kasbim faxrim", "Kasbim kelajagim dasturi" kabi mavzularda seminar - trening mashg'ulotlari, suhbatlar va munozaralar o'tkazilishi, uchrashuvlar, kasb - hunarga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi, o'quvchilarda kasb tanlashga qiziqish hamda ishtiyoqini uyg'otadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari maktab rahbariyati bilan birgalikda maktabning amaliy psixologi, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Kattalarni maslahatlarini o'ylaydilar va ikkilanib yuradilar. Kasb psixologiyasi esa ularni to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi. Izlanuvchi yoshlar kasb – xunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab bo'lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin. Kasbga xos bo'lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog'liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o'rganish orqali yoshlarni o'zlari qiziqqan kasbga yo'nalish beruvchi murakkab fan hisoblanadi. Har bir kasbning o'ziga xos bo'lgan tomonlari, insonlarni o'ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo'lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallashga intiladi.

Bu jarayonlarda inson o'zini ruhiyati bilan shu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi. Jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar yoshlarni ham kasb tanlashda o'ylantirib qo'ymoqda. Ko'plab yangi kasblar paydo bo'lmoqda, ularni fan yangiliklari, texnika va texnologik yangiliklar asosida ko'plab mutaxassisliklar bilan tanishishlari kasb tanlashda qiyin ahvolga solib qo'ymoqda. Bundan tashqari jamiyatni olg'a rivojlanib borishi yoshlarni olayotgan kasblarini raqobatbardoshligini, kerakligini va yashashlari uchun imkoniyatlar yaratib bera olishlariga ishontira bilishini ham talab qilib bormoqda. Hayotiy jarayonlar, yashashga beriladigan imkoniyatlar, kasbga bo'lgan intilishlar tabiiy ravishda amaliy psixologiyaning bir bo'lagi bo'lgan kasb psixologiyasiga bo'lgan talabni zaruriy qilib qo'ydi va bu fanni paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirda O'zbekistonda bu fan endi rivojlanishi kerak bo'lgan va yoshlarni tarbiyalashda, ularga kasb tanlashlariga yordam beruvchi asosiy mutaxassislik fani bo'lib bormoqda. Kasb psixologiyasini mohiyati bu insonni kasbga xos xatti – harakatini va kasb tarixi bilan bog'liq tomonlarni ko'rsatib berish,

shuningdek yoshlarni, kasb tanlovchilarni o‘zi qiziqqan kasbni tanlashlarida yo‘nalishlar berish, keyinchalik kasbdan ketishlariga yordam berish kabilar hisoblanadi.

Dunyoga kelgan bola haqida, uning kelajagi haqida, qanday kasbni egallashi haqida ko‘proq uning ota – onasi bosh qotiradi. Bolani maktabga chiqqanidan boshlab uning ota – onasi “Mening bolam kelajakda vrach bo‘ladi”, yoki ma‘lum bir kasbni oldindan tayyorlab qo‘yadilar. Lekin hayotni o‘zi bolani shaxs sifatida rivojlanishi, biologik taraqqiyoti, psixologik imkoniyatlari asosida o‘ziga xos bo‘lgan kasbni tanlashlariga imkoniyat yaratadi. Dunyoga kelgan bolada kurtak tarzida o‘ziga xos bo‘lgan imkoniyatlar bo‘ladi. Bola rivojlanib borgan sari unda ma‘lum bir tamonga ixtidorlik ham taraqqiy etib boradi. Shaxs bo‘lib borayotgan bolada psixologik xususiyatlar yuzaga chiqib, uni borliqqa bo‘lgan qiziqishini ortirib boradi. Ayrim bolalar yosh davrlaridanoq o‘simliklarga, ularning tuzilishlariga qiziqadilar, ayrimlari xarakterdagi xashoratlarga, xayvonlarga qiziqadilar. Qo‘ng‘izni ko‘rgan bola uni xarakterlanishini tekshirib uni nima xarakterlantirmoqda degan savol bilan tekshirib ko‘radilar. Uni bo‘laklarga ajratadilar.

Bunday bolalardan ko‘plab yaxshi vrachlar, injinerlar, konstruktorlar, qassoblar chiqadi. Keyinchalik bunday shaxslar o‘zida shu kasbga xos bo‘lgan xususiyatlarni rivojlantirib boradilar. Bular ularning qiziqishlaridan kelib chiqadi. SHaxs sifatida bolada shu sohani bilishga ehtiyojlar rivojlanadi. Tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha bilimlar to‘plab boradi. Bu maktabda, oliygohda, atrofdegilarning aytib berishlari va o‘zining mustaqil o‘rganishlari bilan shakllanib boradi. Maktabda bolalarga kasb bilan bog‘liq bo‘lgan tanishtirish darslarini ham tashkil etish zarur bo‘ladi. Bunda bolalar ko‘pchilik kasblar haqida bilib oladilar va kasb tanlashlari uchun imkoniyatlar kengayadi. Ularni yuqori sinflarga o‘tib borishlari bilan birga keyingi etaplarda qaysi kollejga va litseyga kirishlari ham aniqroq bo‘lib boradi. Ular o‘zlari qiziqqan kasbni olishga mustaqil qarorlar qabul qilgan holda intiladilar.

Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo‘ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o‘zining “Kasb qanday tanlanadi” kitobida shunday ko‘rsatib beradi. xilma – xil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi. O‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb insonni har doim o‘z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga olib keladi. Insonda kasb tanlash jarayonini yana shu muallif quyidagicha belgilaydi. Insonda ma‘lum kasbga, uni egallashga xavas, mayil, orzu, ishtiyoq, xafsala bo‘lmasa u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o‘z kelajagini to‘g‘ri anglashga, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo‘ladi. Bular bolada ma‘lum bir maqsadni shakllanishiga va bu yo‘lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o‘z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sohasida o'quvchilarni eng zamonaviy kasblarga yo'naltirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Psixologik diagnostika, treninglar, kasbiy maslahatlar va motivatsion tadbirlar yoshlarning o'z qobiliyatlari hamda qiziqishlariga mos kasb tanlashiga yordam beradi. Maktab, oila va psixolog hamkorligi esa ushbu jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Karimova V.M. Kasb psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
5. Shoumarov G'.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.
6. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Moskva.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.